

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini pedagogik kompetentligini rivojlantirish 6

M.A.Shaxodjayev, J.G'.Obidov

Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda mustaqil ta'lim orqali o'quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida modellashtirish texnologiyalari 10

Sh.M.Ibragimov

Hemis tizimida masofali ta'lim sharoitida onlayn nazoratni tashkil etish 14

A.U.G'ofurov

Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari 19

B.Sh.Mo'llayev

Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari 26

A.B.Uralov

Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar 32

R.A.Hamroqulov

Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda yangi texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi 37

M.M.Yuldashev

Sog'lom turmush tarzini joriy etish va jismoniy madaniyat mutaxassislarini valelogik madaniyatini rivojlantirish 41

Sh.D.Ismoilov

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishning nazariy metodologik asoslari 45

B.B.Djalalov

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli 48

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi faoliyatiga tayyorlash bo'yicha xorijiy tajribalar 54

A.A.Abdusattorov

Musiqa fani o'qituvchisining kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari 59

J.E.Tursunov

Texnologiya darslarida o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish 63

FALSAFA

A.A.Qambarov

O'zbek falsafasi shakllanishida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'rni va ro'li 68

I.A.Asatulloev

Zamonaviy g'arb falsafasida qalb konsepsiysi 75

M.D.Pardayeva

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida alisher navoiy tasavvufiy qarashlarining o'rni 80

S.Q.Qakhorova

Amir Xusrav Dehlaviy falsafiy-nazariy ta'limoti 85

D.O.G'afurov

Tasavvuf ta'limotida tolerantlik masalasi va uning oila farovonligini ta'minlashdagi o'rni 88

G.A.Karimova

Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri 92

M.Sh.Qoraboyeva

O'rta asrlar islom olamida gnoseologik faoliyatning teologik asoslariiga doir qarashlar 100

Sh.I.Valiyev

Sun'iy intellekt tushunchasiga ontologik yondashuv 104

ZAMONAVIY G'ARB FALSAFASIDA QALB KONSEPSIYASI**КОНЦЕПЦИЯ СЕРДЦА В СОВРЕМЕННОЙ ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ****THE CONCEPT OF THE HEART IN MODERN WESTERN PHILOSOPHY****¹Asatulloyev Inomjon Abobakir o'g'li**¹Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasи dotsenti**Annotatsiya**

Zamonaviy g'arb falsafasida qalb tushunchasining tahlili va Alfred Adler qarashlarida qalb konsepsiyasi, muhabbat, xayriyohlik, do'stlik, yaxshilik tilovchi, mutanosib, bemanfaat insoniylari, axloqiy, munosabatlar kelib chiqishi natijasida inson ijodiy imkoniyatlarining tadqiqi bayon qilingan. Shuningdek, inson qalbini ijtimoiy yukasltirish muammolarini zamonaviy g'arb falsafasidagi yondashuvlar asosida yoritilgan.

Аннотация

Анализ понятия души в современной западной философии и взгляды Альфреда Адлера на понятие души, любви, доброжелательности, дружбы, доброжелательности, соразмерности, бескорыстности человека, морали, исследование творческих возможностей человека как результат возникновения взаимоотношений. Также освещаются проблемы социального подъема человеческого сердца на основе подходов современной западной философии.

Abstract

Analysis of the concept of the soul in modern Western philosophy and Alfred Adler's views on the concept of the soul, love, benevolence, friendship, benevolent, proportionate, disinterested human, moral, research of human creative possibilities as a result of the origin of relationships. Also, the problems of social upliftment of the human heart are covered based on the approaches of modern western philosophy.

Kalit so'zlar: qalb, ruhiyat, psixoanalitika, ongsizlik, ma'naviy olam, ruh, jon, borliq, tana, qalb konsepsiyasi.

Ключевые слова: душа, психоаналитика, бессознательное, духовный мир, дух, душа, существование, тело, понятие души.

Key words: soul, psychoanalytics, unconsciousness, spiritual world, spirit, soul, existence, body, soul concept.

KIRISH

Zamonaviy g'arb falsafasida inson qalbi masalasi yirik va taniqli olimlar tomonidan chuqur o'rjanildi, inson ma'naviy-madaniy tafakkurining muhim masalasi sifatida, falsafiy tafakkur tarixiga yangi yo'nalish bo'lib kirdi. Bunda ymutafakkirlardan biri Alfred Adler hisoblanadi.

Qalb tarbiyasi va pedagogika masalalari Adlerni doimo qiziqtirgan. Buning natijasi sifatida olimning "Shifo, olim va tarbiya" nomli asari nashr etiladi. U to'g'ri tarbiya berish nafaqat shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini ochadi, balki jamiyatning axloqiy hayotiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. O'zining pedagogik tamoyillarini ruhiy amaliyotda ham qo'llaydi. Inson ruhiy faoliyatini buzuvchi ongsizlik xislatlarini ochishdan tashqari Adler o'z vazifasini bemor kasalligining kelib chiqish sabablarini aniqlab davolash bilan bir qatorda uning hayotga moslashishi uchun yordam choralarini ham belgilab berishda, deb biladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Insoniyat tarixining barcha davrlarida inson qalbida yaxshilik va yomonlikning namoyon bo'lish sabablarini anqilashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Avestoda «odamlarga yaxshilik qilish dunyodagi eng mo'tabar odatdir» degan g'oya inson qalbidagi ezzulikning e'tirofidir. Buddizm ta'limotida qalb hotirjamligiga erishish uchun bu dunyo azob-uqubatlaridan halos bo'lish lozimligi ta'kidlangan. O'rta asrlar Sharq falsafasida qalb insonning diniy haqiqatlarni anglab oladigan a'zosi sifatida tavsiflangan. Sharq falsafasining yirik vakili Abu Nasr Forobiy inson qalbida xuddi uning vujudiga o'xshash sog'lik va xastalik mavjudligini, Abu Ali Ibn Sino insonni kamolotga etkazuvchi kuch - chinakam muhabbat ekanligini, Abu Rayhon Beruniy insonlarda yaxshilik amallarini shakllantirish uchun ularni mehnatni sevishga o'rgatish zarurligini asoslagan. Jaloliddin Rumiying «inson gapiruvchi hayvondir» g'oyasi uning ezzulik va yovuzlikga moyilligi ijtimoiy muhit bilan bog'liqligiga ishoradir. Shuningdek, Alisher Navoiy Farhod obrazida inson qalbidagi mehnatsevarlik va mardlikni ulug'lagan. Naqshbandiyning «qalbing Alloha, qo'ling mehnatda bo'lsin» degan fikri e'tiqod va bilim uyg'unligining e'tirofidir.

G'arbda ham inson qalbiga izoh berishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Suqrot «inson qalbidagi yovuzliklar, badhulq mayllar, adolatsizliklar bilimsizlik» oqibatidir deb ta'kidlagan. Aflatunning «har bir inson qalbida ko'zga yaqqol tashlanmaydigan yovvoyi, hayvoni yibtid va qarashlar mudrab yotadi va to'qlikka-sho'xlikning ta'sirida har qanday nomus va aqlni chetga surib qo'yib, o'z hirsiy xohishlarini qondirishga intilishi» haqidagi g'oyasi, inson intellektini uning qalb istaklariga bog'liq emasligiga ishoradir. Aristotel esa, «inson qobiliyatni tabiatdan olmaydi, yaxshilik odat singari faoliyat orqali erishiladigan sifatdir» degan g'oya orqali yaxshilikni faoliyatga bog'laydi.

Evropa yangi davr falsafasida inson qalbiga turli darajada baho berilgan. Xususan, Jon Lokkning «Inson mashina», Tomas Gobbsning «Inson-insonga bo'ri», Jan Jak Russuning «Inson ijtimoiy shartnomaga hosilasi» g'oyalarda inson tabiatini va aqliy kamoloti omillari tasniflangan. Hozirgi zamonda falsafasi va undagi oqimlarda ham inson qalbi, ma'naviy-ruhiy olami tahlil qilingan. Jumladan, SHopengauerning «Iroda falsafasi», F.Nitshening «Inson falsafasi», M.Xaydeggerning «Ekzistensial falsafasi»da inson tabiatini, uning ichki cuvvati va mavjudligiga baho berilgan.

Inson hayot yo'lini go'daklikning dastlabki chog'laridanoq kuzatishi mumkin. U ilk qadamlaridan boshlab o'z "Men"ini anglab, tashqi muhitga o'zini qarshi qo'ya boshlaydi. Go'dak to'qnash keladigan ana shu muhit qanday? Nima uchun o'zini unga qarshi qo'yishi kerak? Bu savolga javob berishi uchun Adler, go'dak o'sgan muhitni o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. Birinchidan, go'dak o'zini kuchli, aqlli hamda katta odamlar o'rabi turganligini ko'radi. Ular hamma savollarga javob bera oladilar, hamma narsani biladilar va qila oladilar. Go'dakda kattalar bilan o'zini qiyoslashdan boshlaboq ojizlik va yordamga muhtojlik hissi tug'iladi. Kattalar ham uni tartibga rioya qilishini va ularning aytganlarini bajarishini talab kiladi, erkinligini cheklaydi, uning harakatlarini taqiqlaydi yoki yoqlaydi, mukofotlaydi. Bularning hammasi go'dakda iztirobli kechinmalarning paydo bo'lismiga olib keladi. Bu kechinmalar Adler tomonidan "nomukammallik hissi" deb ataladi. SHunday qilib, go'dak butunlay ota-onasining ixtiyori ostida qoladi. Agar ular bu holatdan uquvsiz foydalansalar, boladagi "nomukammallik xislari" kuchayib boradi.

Ikkinchidan, bola ongsiz ravishda o'zini boshqa bolalar hamda (masalan, aka-ukasi yoki opa-singlisi, bog'chadagi yoki maktabdagi o'rtoqlari bilan) kattalarning o'ziga bo'lgan munosabati bilan taqqoslaysi. Bu qiyoslov xohlasa xohlamasa uning foydasiga bo'lmasisi mumkin. Uchinchidan, unda jismoniy nuqsonlar bo'lishi mumkin, bu uni sog'lom bolalardan ajratib turadi. SHuning uchun ham u o'zining zaifligini anglaydi. Bularning hammasi yig'ilib, keyinchalik Adler fikriga ko'ra, "patogen (qusurli) go'dak vaziyati"ga olib keladi va rivojlaniib, iztirobli nomukammallik hissiyotini chuqurlashtiradi"[1].

Darhaqiqat, hech qanday odam, o'z nomukammalligini, ya'ni u xoh haqiqatda yoki hayoliy bo'lsin, his etib xotirjam yashay olmaydi. Shuning uchun ham tabiiyki, yoshlik chog'idanoq nomukammallik hissiyotidan qutulishni istaydi yoki uni oshkor qilishlarini xohlamaydi. Shaxs "kasallik ortiga berkinish"ni vosita sifatida qo'llaydi. Adler buni "asabiylik pardozi" ("nevrozlik oranjirovkasi") deb ataydi. Shaxs ongsiz ravishda asabiylik belgilarini namoyon qilib, o'z maqsadiga erishishni xohlaydi. Bu bilan individ o'zi uchun asosiy bo'lgan qarorlarni qabul qilishdan, o'z kuchiga ishonchszligini oshiradigan vaziyatlarga tushib qolishdan, o'ziga diqqat qilishlaridan qochadi. Yana, "agar kasal bo'limganimda hayotda nimalarga erishgan bo'lar edim", deb o'z qadrini oshirishga intiladi. Boshqa tomonidan, u zaruriy tarzda o'zini ko'rsatishni istaydi, o'zligini irodasiga bo'ysindirib, hukmini o'tkazishni xohlaydi. Bu bilan u o'z nomukammalligining o'rnini to'ldiradi. Aynan ana shu o'zini ko'rsatish ehtiyoji, hukmronlikka intilishi insonni harakatga chorlovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu hayotning ichki, yashirin sohasini tashkil qiladi va voqe bo'limgan, hayoldagi "uydirma" (fiktiv) maqsadlarni tug'diradi. Bularni anglamaydi. Ularning voqeiy bo'limganini bilib qolsa, ular o'z kuchini yo'qotar edi. Lekin shunday bo'lsa ham, bu uydurma maqsadlar uni betartib borliqda o'z yo'nalishini topib olishiga yordam beradi. Adlerning ana shu qarashlari nemis pozitivist faylasufi Gans Fayxinger ta'sirida shakllangan[2].

Adler inson mavjudligining «nomukammallik hissi»ga o'z diqqatini qaratadi, ularni «o'rnini qoplash» va «o'ta o'rnini qoplash» tizimlari deb ataydi. Olimning ta'kidiga ko'ra, inson tabiatidan ojiz va bechora hol bo'lib tug'iladi, yordamga muxtoj mayjudot sifatida namoyon bo'ladi. Insonning turli xil jismoniy kemtiklari, kamchiliklari bo'ladi. U o'zligini anglatuvchi nizoli vaziyatlarga duch kelib qolganda, atrof-muhit, olamga yuzma yuz to'qnash kelganda o'zining ojizligini to'liq holda anglaydi.

Demak, ana shu vaziyatlar asnosida paydo bo'lgan hislarning kuchli ta'sirida har bir inson ruhiyatida maxsus, ya'ni «ruhiy rivoj o'rnini qoplovchi» tuzilma shakllanadi. Bu tuzilma yordamida shaxs noqisligini engib o'tish uchun xizmat qiladigan ongsiz hayotiy faoliyat harakatga keladi. Bu

FALSAFA

hissiyot ta'sirida esa, inson ruhiyatining ichki rivoji amalga oshadi, ongsiz jarayonlar maqsadli harakatlarga aylanadi va go'dakning birinchi rivojlanish yillaridanoq uning o'zligini namoyon qiladi. Adler inson tuzilishi va jismonan nomukammalligini tan olibgina qolmay, balki uni bartaraf qilish yo'llari haqida xulosalar chiqaradi. Aynan jismonan nomukammallik inson ojizligi o'rnini qoplovchi ruhiy kuchlarni harakatga keltiradi. Bu esa, insonning kamol topishiga yordam beradi, uning ijodkorlik kuchlarining ishga tushishiga olib keladi. Shunday qilib, Adlerning inson haqidagi o'ziga xos ta'lomoti «inson – bu nomukammal mavjudotdir»[3], - degan falsafiy xulosadan kelib chiqadi.

Ko'rib turganimizdek, Adler inson ruhiyatining shartlanganligi haqidagi nuqtai nazarni qayta ko'rib chiqib, "individual psixologiya" nazariyasini shakkantiradi. Bu nazariyaga asosan inson ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon bo'ladi, uning ruhiyati rivoji ijtimoiy muhitga bog'liq bo'ladi.

Adler inson mavjudligining subyekti "nomukammallik hissini", bartaraf qilishda ularning o'rnini qoplash va o'ta o'rnini qoplash tuzilmasiga murojaat qiladi. Lekin Adler tomonidan ilgari surilgan g'oya uncha ham yangi emas edi. Masalan, olimning "nomukammallik" haqidagi mulohazalari Paskalning fikrlari bilan deyarli mos keladi. Paskalga ko'ra, inson unga bo'lgan begona dunyoda o'zining nomukammalligini anglaydi, nochorlik tuyg'ularini o'zida sezadi. Inson "o'zini ojiz deydi va buni tushunadi; shuning o'zi bilan ham u buyukdir" [4].

Inson haqidagi o'z qarashlarini rivojlantirgan olim inson nomukammalligini qoplovchi va tabiatini harakatga keltiruvchi kuchlar haqida turli xulosalarni ilgari suradi, ularning inson faoliyati asosida yotishini ta'kidlaydi. Dastlab u bu o'rnini to'ldirish insonning ongsiz holda «hukmronlikka intilish irodasi»da rivojlanadi, deb taxmin qiladi. Bu g'oyani u nemis faylasufi Fridrix Nitsshedan oladi. F.Nitsshe falsafasida hukmronlikka intilish g'oyasi - "hukmronlikka intilish irodasi" ta'lilotiga borib taqaladi. Nitsshening fikriga ko'ra, inson o'z faoliyatida lazzatni qidirmaydi ham, lazzatdan qochmaydi ham. Binobarin, unisi ham, bunisi ham cheksiz hukmronlikka intiladi. "Hukmronlikka intilish irodasi" Nitsshening fikricha, inson mavjudligining ijodkorlik tabiatiga borib taqaladi, u mavjudlikning chuqur mohiyatini, inson hayotining hamma qirralari asosini tashkil qiladi. "Hamma "vazifa", "maqsad" va "mazmun" – yakka iordaning turlicha ifodasi va turlanishidadir. Bu har bir jarayonga xos: bu jarayon hukmronlikka intilish irodasidir" [5]. Nitsshecha "hukmronlikka intilish irodasi" ta'lomoti Adler mulohazalari bilan hamohang bo'ldi. Adlerning o'zi ham buni yashirmaydi. Aksincha, inson tabiatiga bo'lgan qarashda bu ta'lomitga butunlay qo'shiladi. Adler o'z asarlarida tez-tez aynan Nitsshega murojaat qiladi va uni "buyuk mutafakkir" deb ataydi [6]. Ularning qarashlaridagi farq shundaki, Nitssheda "hukmronlikka intilish irodasi" insonning ijodkor instinktlarini tashkil qilsa, Adlerdag "hukmronlikka intilish irodasi" – inson ruhiy rivojining harakatlantiruvchi quvvatini ko'rsatadi, nomukammallik hissini o'rnini to'ldiruvchi ruhiy tuzilmani tashkil qiladi.

Darhaqiqat, "hukmronlikka intilish irodasi" falsafiy-tarixiy nuqtai nazardan yangi bo'lmay, freydcha inson hulqining hirsiy shartlanganlik ta'lomitining inkori rolini o'ynadi. Bunda insonning ongsiz intilishlari buyuklikka erishishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida yuzaga chiqadi. SHaxs ichki ruhiy faoliyatining hirsilikka yo'yilishi yo'qoladi. Demak, Adler bilan Freyd o'rtaсидаги бахсада ularning ongsizlikni turlicha tushunishi namoyon bo'ldi. Keyinchalik Adler «hukmronlikka intilish» haqida emas, balki «ustunlikka intilish» haqida fikr yuritadi. U so'nggi asarlarida «komillikka intilish» tushunchasini qo'llaydi. Zotan, inson intilishlarining ba'zi bir o'ziga xos qirralariga qaramasdan, Adler tomonidan ular «har bir shaxs uchun tug'ma, zaruriy va umumiy asos» [7], deb tan olinadi. Aslida «komillikka intilish» ichki harakatning namoyon bo'lishi sifatida amalga oshadi. Bu inson rivojining ijtimoiylashuvi jarayonida yakuniy va maqsadli tus olib boradi. Agar «hukmronlikka intilish»da, Nitsshe ta'kidiga ko'ra, «a'lo odam» tug'lsa, yungcha «individuallashish» jarayonida insonning Xudo bilan birlashuvi sodir bo'lsa, Adler fikricha esa, «komillikka intilish» insonni xudo ham qilmaydi, a'lo odam ham qilmaydi - balki yakunlangan mukammal mavjudot qilib shakkantiradi. Bunda biz Adler g'oyalari ma'lum ma'noda butun insoniyat, shu jumladan, yurtimizda ilgari surilgan ruhan baquvvat bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash dasturi bilan ham birligini namoyon qiladi.

Insonning ichki tabiatini xulqi asoslarini tushunishga harakat qilib, Adler o'z diqqatini inson munosabatlarini, aloqalarini to'liq tadqiq qilishga qaratadi. Bu aloqalar yordamida shaxs tabiat va ijtimoiy dunyo bilan o'z munosabatini shakkantiradi. Insonning adlercha nomukammal mavjudot sifatidagi talqini yana boshqa bir mezon bilan ham to'ldiriladi. Unga ko'ra, shaxs ijtimoiy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. U «inson haqida gapirganda, uni eng avvalo, ijtimoiy mavjudot sifatida tan olish zarur» [8], deb ta'kidlashi bejiz emas. Ya'ni, inson **bir tomonidan**, anatomik jihatdan

nomukammal mavjudot sifatida namoyon bo'lib, o'z nomukammalligini «komillikka intilish» orqali qoplashga harakat qilsa, **boshqa tomondan**, ijtimoiy mavjudot sifatida butun insoniyatning bir qismi ekanligini his qiladi. Inson borlig'ining bu qirralari o'tasida mustahkam aloqa mavjud. Bu aloqani isbotlash uchun Adler ongsiz intilishlar tabiatini va ijtimoiy o'zaro munosabatlar mohiyatini butun insoniyatga taalluqli ijtimoiy hissiyotdan keltirib chiqaradi. Bu erda eng asosiy mezon «ijtimoiy manfaat» hisoblanadi. «Ijtimoiy manfaat» inson bilan jamiyat o'tasidagi munosabatni namoyon qiladi. Uningcha, «ijtimoiy manfaat» tushunchasi faqat insonning umuminsoniylik hissiyoti bilan shaxsiy-individual xislatlarining o'ziga xos xususiyatlarinigina emas, balki insonning hayotga bo'lgan munosabati hamda baholash mezonini ham o'z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, har bir inson o'ziga chetdan qarash qobiliyatiga ega, unga duch kelgan hayotiy vaziyatlarga nisbatan ijtimoiy shakllangan qarashlar orqali baho beradi. Ular ma'lum madaniy va ijtimoiy mezonlar ta'sirida vujudga keladi. Odamlar bu mezonlarni birgalikda yashash jarayonida hosil qiladi. «Ijtimoiy manfaat» asosida huquqiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar va estetik baholash mezonlari shakllanadi, insonning turli xil muammolari va ziddiyatlari ijtimoiy qadriyatga ega deb baholanadi. Bundan tashqari, Adler ta'kidiga ko'ra, «hamma hayotiy muammolar ijtimoiy manfaatning etarli darajada rivojlanganidagina o'ziga mos echimini topishi mumkin»[9].

Vaholanki, «ijtimoiy manfaat» inson ongsiz intilishlarining inkori bo'lishi lozim. Chunki, u insonning ongli ijtimoiy hayoti bilan bog'iqliqdir. Ammo, «ijtimoiy manfaat»ning adlercha tushunchasi ruhiy tahlilga asoslanadi. Bunga ko'ra, insonning ichki harakatlantiruvchi kuchi tug'ma, oldindan berilgan bo'ladi. Adlerning mulohazasi aynan shu yo'nalishda davom etadi. «Inson zotiga xos bo'lgan «ijtimoiy manfaat» uning dastlabki hujayrasida tug'ma ravishda shakllanadi»[10], deb qayd qiladi u. Bu holatdagi «tug'malik»ni Adler shaxsning ijtimoiy dunyo bilan munosabatda bo'la oladigan qobiliyatning mavjudligi sifatida talqin qiladi. Lekin shunga qaramasdan, adlercha inson zotini tushunish ziddiyatli bo'lib, biologik va ijtimoiylik munosabatida, uning shaxsiy-individual va ijtimoiy xislatlari aloqasini izohlashda namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Forobi va Ibn Sinoning inson ruhiyati haqidagi ta'limotlari Adlerning fikriga hamohangdek tuyuladi. Forobiyning ta'limoti bo'yicha, insonning ruhiy mukammalligi, ijobil axloq sifatlariga ega bo'lishi insoniy xislatlarni, turmushdagi o'zaro munosabatlarni talab etadi, bunday munosabatlarga bo'lgan zaruriy ehtiyoj natijasida inson jamoasi vujudga keladi. Forobi "Fozil odamlar shahri" asarida shunday deb yozadi: "Har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan narsalarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p insonlarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatini bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va arning aholi yashaydigan qismiga o'nashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi" [11]. "Kishi boshqa kishilarning ehtiyojini qondirish uchun yashaydi, mehnat qiladi, o'z navbatida, boshqalar ham xuddi shunday. Birov ko'chat o'tkazadi, birov oziq-ovqat tayyorlaydi, birov kiyim-kechak va boshqa birov yana boshqa xil, ko'pchilik uchun zarur bo'lgan yumushni bajaradi. Shunday qilib, jamiyatda har bir kishi jamiyat a'zolari uchun foyda keltiradigan ish bilan mashg'ul bo'ladi..." [12], - deb yozgan edi Ibn Sino.

Adler o'zining shaxs haqidagi tasavvurlariga ba'zi o'zgartirishlar kiritganiga qaramasdan, uning umuman inson to'g'risidagi ta'limoti o'zgarmadi. Uning asosida quyidagi nazariy xulosalar yotadi: inson biologik jihatdan to'liq bo'lmagan mavjudot; uning xulqidagi hal qiluvchi omil – o'zi hamda uni o'rab turgan atrof-olam haqidagi fikridir; hayotiy muammolarga duch kelganda, uni muvaffaqiyatli hal qilish uchun intilishi, ya'ni komillikka intilishi ham insonning asosiy, zaruriy xususiyatlaridan biridir; ijtimoiy manfaat asosiy maqsadga erishishning zaruriy shartidir – bu insoniyatning farovonligi hamda shaxs kamolotini ta'minlashdir; shaxs – bu yagonalik va mukammallik bo'lsa, insoniyat esa, ijtimoiy manfaat rivojidir; ibtidosidan tug'ma insoniy imkoniyatga ega bo'lgan ijtimoiy manfaat tufayli har bir insonning hayoti mushtarak tarzda rivojlanadi; hayot tarzi go'daklikdan boshlab shakllanadi, u ijodkorlik quvvatiga ega bo'ladi. SHunga ko'ra inson butun dunyonи muayyan darajada anglay biladi, shunga monand harakat qiladi.

XULOSA

Shunday qilib, bandning xulosasi quyidagilardan iborat:

FALSAFA

- Adler insonni ijtimoiy munosabat mahsuli sifatida ko'radi. Uni eng avvalo ijtimoiy mavjudot, deb hisoblaydi. U o'ziga zarar qilmasdan, boshqa odamlar o'tasida o'zligini saqlagan holda yashaydi. Shu ma'nodagi ijtimoiylik hissiyoti hukmronlikka intilish g'oyasining inkori bo'lib xizmat qiladi hamda ruhiy sog'lomlik mezoni hisoblanadi, shaxs ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi;

- Adler faqat inson hulqining hirsiy shartlanganini bartaraf qilish bilan cheklanmay, ong va ongsizlik ruhiyati o'tasidigi murosasiz nizoni ham yo'qotadi;

- Adler shaxsnинг rivoji, unga ijtimoiy manfaat xos bo'lganligi uchun ijobiy yo'nalishda ketadi va inson «ezgu tabiatи»ni belgilab beradi, deb ta'kidlaydi;

- Adler fikriga ko'ra, insonlar o'tasidagi muhabbat, xayrixohlik, do'stlik, yaxshilik tilovchi, mutanosib, bemanfaat insoniy, axloqiy, munosabatlar kelib chiqishi natijasida inson ijodiy imkoniyatlari ochiladi, ko'tarinki, ijobiy dunyoqarashi shakllanadi va nomukammallik hissiyoti yo'qoladi. Bu esa, insonning ijtimoiy aloqalarga bog'langanligi darajasini, boshqalar bilan muloqot qila olishligini, bu munosabat nechog'lik chuqurligini, o'z-o'ziga va o'zgalarga ishonchni, qaror qabul qila olishligini va o'z qarori uchun mas'uliyatini belgilaydi;

- olimning fikriga ko'ra, inson ruhiy hayoti rivoji, hayot faoliyati qirralarini ochilishi - ichki reja orqali amalga oshadi. Bu esa, pirovard maqsadga erishish uchun yo'naltirilgandir. Ya'ni «ruhiy rivoj o'rnnini qoplovchi» tuzilma shakllanadi, bu tuzilma yordamida shaxsda o'z nomukammalligini engib o'tishi uchun xizmat qiladigan ongsiz hayotiy faoliyat harakatga keladi. Ana shu jarayon ta'sirida esa ongsiz jarayonlar maqsadli harakatlarga aylanadi;

- bu ichki reja inson qalbining ongsiz qatlamlarida makon topadi, uning ibtidosi bolalikdanoq o'z kurtaklarini namoyon qiladi, go'dak o'z hayolotida dastlabki me'yorlar va hayoliy orzularni shakllantiradi, bosqichma-bosqich o'z hayot tarzini ishlab chiqadi. Bu esa, «ijodkorlik faoliyatining individual shaklidir»;

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. –М.: Фонд “За экономическую грамотность”, 1995. –С. 10.
2. Файхингер Г. Философия как если бы. –М.: -СПб, 1961.
3. Adler A. Individual Psychology of Alfred Adler: A systematic presentation in selections from his writings. - N.Y., 1964. -Р. 129.
4. Ларошфуко Ф. Максими. Б. Паскаль. Мысли. Ж. де. Лебройер. Характеры. -М., 1990. –С. 176.
5. Ницше Ф. Собр. соч. Т. 1. –М., 1990. –С. 325.
6. Adler A. Understanding Human Nature. -N.Y., 1928. -Р. 259.
7. Adler A. Superiority and Social Interest: A collection of later writings. -N.Y., 1979. -Р. 39.
8. Adler A. Understanding Human Nature. -N.Y., 1928. -Р. 43.
9. Adler A. Cooperation Between the Sexes: Writings on women, love and marriage, sexuality and its disorders. - N.Y., 1978. -Р. 78.
10. Adler A. The Progress of Mankind // Individual Psychol., 1982. Vol. 38. № 1. -Р. 14.
11. Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент, 1993. –Б. 186.
12. Ибн Сино. Шифо // Юсуф Мусо. Ибн Сино фалсафасида социология ва сиёсат. –Қоҳира, 1952. –Б. 8.